

and self-awareness abilities, intercultural communication training is crucial. This form of communication allows individuals to adapt their skill set to meet the intercultural collaboration needs that global businesses value.

### **References**

1. L. King and Richard Schur. African American culture and legal discourse. Palgrave Macmillan Press, 2009. P. 105.
2. Lustig & Koester. Intercultural competence. Creative education, 2008. P.345
3. Robert Gibson. Intercultural Business Communication. Oxford University Press. 2000. P. 58
4. Samovar & Porter. Intercultural communication. Cengage Learning. 1985.p.10
5. Ting-Toomey, Stella & Chung, Leeva. Understanding Intercultural Communication. Oxford University Press. 2011. P. 87
6. Eldorjon Y. Shermatov (2023). Principles of teaching a foreign language to journalism students using LMS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(04), 7–12. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/23042>
7. Shermatov, Eldor Yovmiddinovich. Specific training of professional vocabulary of the English language for students of journalism. Theoretical & Applied Science 9 (2020): 467-470.
8. Mamaraimovna, X. Z. Kasbga yo'naltirilgan chet tili (nemis va ingliz tillarida) o'rgatishda terminlarni o'rganish usullari. Daf-Unterricht Im Digitalen Zeitalter, 121.
9. Madaminova, Umida Rustamovna. Integrated and communicative approaches in teaching and learning English. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 92-97.

### **AXBOROT XIZMATINING BOSMA NASHRLAR BILAN ISHLASH DARAJASINI SHAKLLANTIRISH**

*Mohigul ABDULLAYEVA*  
*Buxoro viloyati, "Hududgaz Buxoro"*  
*gaz ta'minoti filiali matbuot kotibi*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot xizmatining bosma nashrlar bilan ishlash darajasi, ular tomonidan e'lon qilingan maqolalarda til me'yorlariga rioya qilinmayotganligi haqida bayon etilgan. Ba'zi idora va tashkilotlarning bosma*

*nashrlarda hali hamon o'z o'rniga ega emasligi va aynan ular bilan ishlashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, uning imkoniyatlari haqida qayd etib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *internet, bosma nashrlar, tarmoq, kontingent, individual, ijtimoiy xizmat, uslubiy me'yor.*

Bugungi hayotimizni internet tarmoqlarisiz tasavvur etishimiz qiyin bo'lib bormoqda. Har bir soniyamizni yangi xabarlar bilan boyitamiz. Ular esa daqiqa o'tmasidan o'z qiymatini yo'qotib borishga ham ulgurmoqda. Shubhasiz, bunda millionlab mavjud ijtimoiy tarmoqlar va turli saytlar orqali targ'ibot qilinayotgan xabarlarni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin. To'g'ri, ayni bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalarning targ'ibotida idora va tashkilotlarda mavjud axborot xizmatlarining o'zni beqiyos. Ularning faoliyati bevosita jamoatchilik bilan aloqa qilish ekan, bunda aksariyat matbuot kotiblari o'z rasmiy kanallari, ijtimoiy tarmoqlar yoki turli saytlar orqali axborot tarqatishadi. To'g'ri, bu targ'ibotning eng oson va qisqa vaqt davomida yetib boradigan usuli hisoblanadi. Ammo bosma nashrlar orqali qilinadigan targ'ibotda ham jamoatchilik o'ziga kerakli fikrni olishi mumkin. Bugungi kunda bosma nashrlarda axborot xizmati faoliyatining yoritilish darajasi o'zini ijobiy jihatdan ko'rsata olmayapti. Asosan tuman va shahar hokimliklarining axborot xizmatlari tomonidan bosma nashrlar orqali targ'ibot qilinayotgan bo'lsa-da, mavjud kamchiliklarni, til va uslub bilan bog'liq muammolarni ham yo'q deya olmaymiz.

Matbuot – o'qish degani. U jamiyatda o'qish hissini ham, umumiy nutqiy madaniyatni ham tarbiyalaydi<sup>51</sup>. Shunday ekan har bir yoziladigan matnda jamoatchilikka kerakli bo'lgan ma'lumotlar bo'lishi shart. Voqea-hodisalar haqida tasavvur hosil qilish, aniq tushunchaga ega bo'lish matnning darajasini oshiradi. Viloyat hokimligi axborot xizmatining “Buxoronoma” gazetasining 2024-yil 14-yanvardagi 3-sonida “Vatan himoyachilari sharaflandi”<sup>52</sup> sarlavhali maqolasi nashr etilgan. Unda keltirilgan jumlar orqali bo'lib o'tgan voqea-hodisa haqida batafsil tasavvurga ega bo'lish juda oson. Matnda bevosita Vatan himoyachilarining sharaflari mehnati va ular uchun yaratilgan sharoitlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Har bir bandidan tasavvurga ega bo'lish

<sup>51</sup> Toshaliyev I, Abdusattorov.R. Ommaviy axborotning tili va uslubi. – T.: Universitet. 2006. B-55

<sup>52</sup> Buxoronoma, 2024,14-yanvar. 3-soni

juda oson. Shuningdek, ular uchun tashkil etilgan tadbirdagi voqealar rivoji ham ketma-ketlikda, batafsil izohlangan. Bu bilan axborot xizmatining bevosita bosma nashrlardagi o'zni va rolining oshayotganligi hamda o'z darajasini belgilab borayotganligini ko'rish mumkin.

Axborot xizmati tomonidan bosma nashrlarga taqdim etilgan matnlarda terminlarning qo'llanilishida qoida hamda talablar bor. Ularning noo'rin ishlatilishi sabab kerakli ma'lumotga ega bo'lish juda qiyin. Ayniqsa, siyosiy targ'ibot ishlarida bu ayni siyosiy qarashni talab etadi. Ommaviy-siyosiy asarlarda odatda mantiqan ta'kidlash ko'proq uchraydi. Bunda termin yordamida yetkazilayotgan tushuncha yanada bo'rttirish, kuchaytirish maqsadida turli nutqiy usullar va til vositalaridan foydalaniladi<sup>53</sup>. "Jondor ovozi" gazetasining 2023-yildagi 39-sonida "Tuman kengashining navbatdagi sessiyasi" sarlavhali matnda "Tadbirkorlarga yanada ko'proq yengilliklar berish, soliq yukini pasaytirish maqsadida qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar o'zining ijobiy samarasini berayapti. Kontingent reja tuman bo'yicha byudjet daromadlariga 2023-yilning 9 oyligi uchun belgilangan 60,2 milliard so'm prognoz, 62,4 milliard so'm, ya'ni rejaga nisbatan 2,2 milliard so'm ortig'i bilan yoki 104 foizga bajarildi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 milliard so'mga ko'p demakdir"<sup>54</sup> degan jumla keltirilgan. Unda "soliq yuki" birikmasini shunchaki "soliq", "kontingent"ni esa "aholi" so'zini qo'llagan holda matn yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki murakkab terminlarning ishlatilishi matn mohiyatini chuqurroq anglash uchun qiyinchilik tug'dirishi tabiiy.

Axborot xizmati bevosita jamoatchilikka yaqinlashar ekan, u yangilikni tezkorlik bilan yetkaza olishi shart hisoblanadi. To'g'ri, bunday jarayonda ijtimoiy tarmoqlar unga yordamga kelishi tabiiy. Bu to'g'rida yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Ammo gazeta orqali qilingan targ'ibotda esa ma'no kuchliroq bo'lishi va til, uslub me'yorlariga rioya qilingan holda yozilishi shart. Gazeta o'quvchilarini joyida yuz berayotgan yangiliklardan xabardor etib borishi zarurligi o'z-o'zidan ravshan. Shunday ekan har bir muxbir

---

<sup>53</sup> Tohirov. Z. Adabiy tur, termin, tahrir va muharrirlik mahorati. T.: Noshir 2019. B-48,49

<sup>54</sup> Jondor ovozi. 2023, 26-oktyabr. 39-son.

haftasiga kamida ikkita axborot berishni o'zi uchun qonun deb hisoblasin<sup>55</sup>. Matbuot kotibi bo'lib o'tayotgan voqea-hodisani bosma nashrlar uchun maxsus qolipga solgan holda, jamoatchilikka yetib boradigan darajada adabiy til me'yorlariga rioya qilib, e'lon qilishi talab etiladi. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, gazeta o'quvchilarni voqea-hodisalar haqida xabardor qiladi. Shuning uchun har bir matn uslub jihatidan to'g'ri tanlangan va til me'yorlari qoidalarga amal qilingan holda yozilishi maqsadga muvofiqdir. Yana "Buxoronoma" gazetasiga qaytamiz. Bosma nashrning 2024-yil 9-fevraldagi 9-sonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi Buxoro viloyati boshqarmasi matbuot kotibining "Ijtimoiy madad tizimi shakllanmoqda"<sup>56</sup> nomli maqolasi e'lon qilingan. Unda quyida berilgan jumlagaga e'tiborni qaratsak: "Shuningdek, qarorga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali individual tartibda ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish rejasini ishlab chiqish, fuqarolarga ijtimoiy xizmatlar to'g'risida huquqiy maslahatlar berish, talabgorlarni o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi yoki yolg'iz kekxa va nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish yoki bekor qilish kabi ijtimoiy xizmat va yordamlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari zimmasiga yuklandi"<sup>57</sup>. Ushbu gap mohiyatan tushunarsiz bo'lib, unda "individual" so'zini "yakka" degan so'z bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bu so'z bevosita adabiy til talablariga javob bermaydi, aksincha, o'zlashma so'z hisoblanadi. Shuningdek, bir gapning o'zida "ijtimoiy" so'zi besh marotaba takrorlangan. Bu bilan esa uslubiy xatolik yuzaga kelgan. To'g'ri, jumla bir nechta sodda gaplardan iborat qo'shma gap hisoblanadi, ammo undagi har bir sodda gapdan kerakli mohiyatni anglash juda qiyin. Qo'shma gap bevosita quyidagi tartibda yozilishi lozim. "Qarorda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali yakka tartibda xizmat ko'rsatish rejasini ishlab chiqish belgilangan. Shu bilan birga huquqiy maslahatlar berish, talabgorlarni o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi

---

44 Bakiyeva. G., Teshabayeva D. Ommaviy axborot vositalari tili. T.: 2019. B-67

<sup>56</sup> Buxoronoma. 2024, 9-fevral. 9-soni

<sup>57</sup> Buxoronoma. 2024, 9-fevral. 9-soni. 2-bet

yoki keksa, nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish, bekor qilish kabi yordamlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari zimmasiga yuklatildi".

Kuzatuvlar davomida aniqlandiki, axborot xizmatlarining bosma nashrlardagi o'rni sezilarli darajada pasayib bormoqda. To'g'ri, aksariyatimiz ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Ammo ulardagi ba'zi xatoliklar jarayon haqidagi tasavvurimizni boyitishda to'sqinlik qilishi mumkin. Achinarlisi esa ulardan foydalanishda cheklovlar ham yo'q emas. Shuning uchun axborot xizmatlari bosma nashrlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yishi, bu bilan ularning targ'iboti bevosita manzil tanlamasligini anglash juda oson.

Xulosa o'rnida qayd etsak, bosma nashrlar bilan ishlash bevosita axborot xizmati xodimining kasb mahoratini shakllantiradi. Yozish uslubini o'zgartiradi, targ'iboti bilan esa turli yoshdagi va kasb egalari tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bakiyeva G., Teshabayeva D. Ommaviy axborot vositalari tili. T.: Universitet. 2019.
2. Buxoronoma, 2024, 14-yanvar. 3-son.
3. Buxoronoma. 2024, 9-fevral. 9-son.
4. Jondor ovozi. 2023, 26-oktyabr. 39-son,
5. Tohirov Z. Adabiy tur, termin, tahrir va muharrirlik mahorati. T.: Noshir. 2019.
6. Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborot tili va uslubi. – T.: Universitet. 2006.

## **MEDIAMAKONDA KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MUAMMOLARI**

***Sherali ABDURAIMOV***

*AnDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi yo'nalishi erkin tadqiqotchisi,*

***Maxammattmur ABDULATIBOV***

*Andijon davlat universiteti  
Kompyuter injiniringi kafedrasi o'qituvchisi*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida medimakonda kommunikatsiya vositalaridan foydalanishdagi muammolar, samarali foydalanish